

## KATE CHOPIN QAHRAMONLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI: PSIXOLOGIK UYG‘ONISH VA IJTIMOYIY CHEGARALAR TALQINI

Ibodullayeva Zilola Jamshid Qizi  
O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti  
Tayanch Doktoranti  
Email: [zilolaibodullayeva2@gmail.com](mailto:zilolaibodullayeva2@gmail.com)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19975310>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XIX asr oxiri Amerika adabiyotining muhim vakili Kate Chopin asarlarida qahramonlarning rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida adibaning *The Awakening* romani hamda “*The Story of an Hour*”, “*A Pair of Silk Stockings*”, “*Désirée’s Baby*” va “*The Storm*” hikoyalari tanlandi. Maqolada Chopin qahramonlari taraqqiyotining dastlabki ijtimoiy rolga joylashtirilish, ichki ziddiyatning shakllanishi, o‘zlikni anglash, erkinlikka intilish va yakuniy ruhiy natija kabi bosqichlari o‘rganiladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Chopin qahramonlari an’anaviy sarguzasht yoki tashqi harakatlar orqali emas, balki ruhiy tebranishlar, maishiy vaziyatlar, sezgi, xotira, istak va ijtimoiy bosim bilan to‘qnashuv orqali rivojlanadi. Ayniqsa ayol qahramonlarning o‘sishi nikoh, onalik, tanaviylik, shaxsiy erkinlik va ijtimoiy me‘yorlar o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlar bilan belgilanadi.

**Kalit so‘zlar:** Kate Chopin, qahramon rivoji, psixologik realizm, ayol obrazi, ichki konflikt, o‘zlikni anglash, erkinlik, nikoh, Amerika adabiyoti.

### Kirish

Kate Chopin (1850–1904) XIX asr oxiri Amerika nasrida ayol ruhiyati, nikoh, onalik, shaxsiy erkinlik va jamiyat me‘yorlari o‘rtasidagi ziddiyatlarni nozik badiiy shaklda ifodalagan yozuvchilardan biridir. Uning ijodi, bir tomondan, mahalliy Louisiana madaniyati, kreol muhiti va Amerika janubi hayotiga yaqin bo‘lsa, ikkinchi tomondan, inson ruhiyatining ichki qatlamlarini ochish, ayniqsa ayolning shaxsiy “men”ini anglash jarayonini tasvirlash bilan ajralib turadi. Shu sababli Chopin nasri faqat regional adabiyot namunasi sifatida emas, balki psixologik realizm va modern adabiy tafakkurga yaqin hodisa sifatida ham baholanadi.

Adibaning *The Awakening* romani 1899-yilda nashr etilgan bo‘lib, Edna Pontellier obrazida turmush qurgan ayolning ruhiy uyg‘onishi, jamiyat tomonidan belgilangan xotinlik va onalik vazifalari bilan shaxsiy istaklari o‘rtasidagi kelishmovchilikni tasvirlaydi. “*The Story of an Hour*”, “*A Pair of Silk Stockings*”, “*Désirée’s Baby*” va “*The Storm*” kabi hikoyalarda esa qahramon rivoji qisqa syujet doirasida, lekin nihoyatda zich psixologik shaklda namoyon bo‘ladi. Chopin qahramonlari ko‘pincha tashqi tomondan oddiy ijtimoiy rolga ega: ular xotin, ona, beva, uy bekasi yoki oilaviy tartib ichida yashovchi ayol sifatida ko‘rinadi. Biroq asar davomida ularning ichki olamida muhim ruhiy siljish yuz beradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Kate Chopin asarlarida qahramonlarning rivojlanish bosqichlarini aniqlash, ularni psixologik realizm va ayol shaxsiyati talqini nuqtayi nazaridan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda qahramon rivoji faqat voqealar ketma-ketligi yoki syujet dinamikasi sifatida emas, balki ichki ong, ruhiy konflikt va ijtimoiy rollar bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi.

### Tadqiqot metodologiyasi va manbalar asoslanishi

Maqolada yaqin o‘qish, tarixiy-kontekstual yondashuv, psixologik tahlil va qiyosiy talqin metodlaridan foydalanildi. Birlamchi manba sifatida Kate Chopinning *The Complete Works of*

Kate Chopin nashri, *The Awakening* romani hamda tanlangan hikoyalari asos qilib olindi. *The Complete Works of Kate Chopin* Per Seyersted tahririda nashr qilingan bo‘lib, Chopinning romanlari, hikoyalari va boshqa yozuvlarini jamlagan muhim akademik manbalardan biridir (Chopin, 2006).

Ikkilamchi manbalar sifatida Janet Beer tahriridagi *The Cambridge Companion to Kate Chopin*, Emily Tothning *Unveiling Kate Chopin*, Bernard Koloskining *Kate Chopin: A Study of the Short Fiction*, shuningdek, *Library of America* va *Norton Critical Edition* kabi ilmiy nashrlar tanlandi. Bu manbalar Chopin ijodini tarixiy, madaniy, biografik va adabiy kontekstda o‘rganishga imkon beradi. *Kate Chopin International Society*, *Encyclopaedia Britannica* va *Project Gutenberg* materiallari esa asarlarning nashr tarixi, matn mavjudligi va bibliografik ma‘lumotlarini aniqlashtirishda yordamchi manba sifatida ishlatildi.

### **Chopin qahramonlari rivojining umumiy modeli**

Kate Chopin asarlarida qahramon rivojlanishi an‘anaviy epik qahramonlik modeli asosida emas, balki psixologik o‘zgarish va ichki anglash jarayoni orqali yuzaga keladi. Uning qahramonlari tashqi olamni zabt etmaydi; aksincha, ular o‘z ichki dunyosi, yashirin istaklari va jamiyat talab qilgan rollar bilan yuzma-yuz keladi. Shu jihatdan Chopin qahramonlari rivojini shartli ravishda besh bosqichda ko‘rsatish mumkin.

Birinchi bosqich - ijtimoiy rolga joylashtirilish. Asar boshida qahramon odatda jamiyat tomonidan belgilangan maqomda tasvirlanadi: Edna Pontellier xotin va ona, Louise Mallard turmush qurgan ayol, Mrs. Sommers iqtisodiy cheklovlar ostidagi ona, Désirée xotin va ona, Calixta esa oilali ayol sifatida ko‘rinadi. Bu bosqich qahramonning tashqi maqomini belgilaydi, lekin uning ichki ehtiyojlari hali to‘liq ochilmagan bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich - ichki ziddiyatning shakllanishi. Qahramon o‘z ijtimoiy roli bilan ichki istagi o‘rtasidagi tafovutni sezadi. Bu ziddiyat ba‘zan aniq fikr shaklida emas, balki noaniq bezovtalik, yolg‘izlik, zerikish, tanaviy sezgi yoki ruhiy siqilish tarzida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi bosqich - o‘zlikni anglash lahzasi. Chopin qahramonlari ko‘pincha oddiy maishiy yoki tabiiy detal orqali o‘z ichki holatini anglaydi: Edna uchun dengiz, Louise uchun ochiq deraza, Mrs. Sommers uchun ipak paypoq, Calixta uchun bo‘ron, Désirée uchun esa chaqaloqning tashqi belgisi ruhiy burilish nuqtasiga aylanadi.

To‘rtinchi bosqich - erkinlikka intilish yoki ichki qaror. Bu bosqichda qahramon mavjud ijtimoiy tartibni qayta baholaydi. Ba‘zilari faol harakat qiladi, ba‘zilari faqat ichki ozodlikni his qiladi, ayrimlari esa tashqi hukm ostida o‘zlik inqiroziga uchraydi.

Beshinchi bosqich - yakuniy ruhiy natija. Chopin ijodida bu natija ko‘pincha fojiaiy, kinoyaviy yoki ochiq yakun ko‘rinishida beriladi. Qahramon erkinlikka to‘liq erishmasligi mumkin, ammo ruhiy jihatdan avvalgi holatiga qaytmaydi. Demak, Chopin qahramonlari rivoji tashqi muvaffaqiyatdan ko‘ra ichki anglash darajasi bilan belgilanadi.

### **The Awakening romanida Edna Pontellier rivoji**

Kate Chopin qahramonlari ichida eng murakkab rivojlanish jarayonini Edna Pontellier obrazi namoyon etadi. *The Awakening* romanida Edna dastlab ijtimoiy jihatdan barqaror oilaga ega, erli va farzandli ayol sifatida tasvirlanadi. Uning eri Léonce Pontellier iqtisodiy jihatdan mustahkam, jamiyatda obro‘li erkak bo‘lib, oilaviy hayot tashqi tomondan tartibli ko‘rinadi. Biroq aynan shu tartib Ednaning ichki ehtiyojlari va shaxsiy “men”i bilan mos kelmaydi.

Ednaning birinchi rivojlanish bosqichi ijtimoiy rolga moslashish jarayonidir. U o‘zini xotin va ona sifatida tutishi, bolalar tarbiyasi va uy hayoti bilan shug‘ullanishi kerak. Lekin Chopin

qahramonni boshidanoq ichki jihatdan farqlanib turadigan, o‘z ruhiy holatini to‘liq anglamagan bo‘lsa-da, mavjud tartibdan qoniqmayotgan ayol sifatida beradi. Shu sababli roman boshidanoq tashqi barqarorlik va ichki bezovtalik o‘rtasida qarama-qarshilik paydo bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich Ednaning ichki uyg‘onishi bilan bog‘liq. Grand Isle muhiti, dengiz, musiqa, san‘at va Robert Lebrun bilan ruhiy yaqinlik Ednaning o‘ziga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. Dengiz romanda faqat tabiat manzarasi emas, balki qahramonning erkinlikka intilishi, tanasi va ongini mustaqil his etishga bo‘lgan ehtiyojining ramzidir. Edna dengiz orqali o‘z imkoniyatini, chegaralarini va yashirin istaklarini anglay boshlaydi.

Uchinchi bosqichda Edna ijtimoiy rolga ichki qarshilik ko‘rsata boshlaydi. U oilaviy marosimlardan voz kechadi, rasm chizishga ko‘proq e‘tibor beradi, yolg‘izlikni tanlaydi va o‘z vaqtini o‘zi boshqarishga intiladi. Bu jarayon ochiq siyosiy isyon emas, balki shaxsiy makon va ichki mustaqillikka bo‘lgan ehtiyojning namoyonidir. Chopin Ednaning rivojini romantik ideallashtirmaydi; aksincha, uning qarorlaridagi ikkilanish, xatolik, ehtiros va ruhiy noaniqlikni saqlab qoladi.

To‘rtinchi bosqich Ednaning mustaqil makon izlashida ko‘rinadi. Uning “pigeon house” ga ko‘chishi oddiy uy almashtirish emas, balki oilaviy institutdan, er mulki bilan bog‘liq nazoratdan va jamiyatning ayolga qo‘ygan talablaridan uzoqlashish urinishidir. Bu makon Edna uchun o‘z hayoti ustidan vaqtincha bo‘lsa-da nazorat o‘rnatish imkonini beradi.

Beshinchi bosqich romanning fojiviy yakunida namoyon bo‘ladi. Edna o‘z istaklari, onalik mas‘uliyati, nikoh instituti va jamiyat bosimi o‘rtasidagi ziddiyatni murosali hal qila olmaydi. Uning yakuniy harakati turlicha talqin qilinadi: bir tomondan, bu fojia; ikkinchi tomondan, ijtimoiy nazoratga qaytishni rad etishdir. Shu jihatdan Edna rivoji tashqi ozodlik bilan yakunlanmasa-da, ruhiy jihatdan jamiyat bergan tayyor rolni inkor etish darajasiga yetadi.

### **“The Story of an Hour” da Louise Mallard rivojining ixcham modeli**

“The Story of an Hour” hikoyasida qahramon rivoji juda qisqa vaqt oraliq‘ida, bir soat ichida kechadi. Louise Mallard dastlab eri vafot etgani haqidagi xabarni eshitgan ayol sifatida tasvirlanadi. Uning birinchi reaksiyasi ijtimoiy jihatdan kutilgan qayg‘u holatiga mos keladi. Biroq Chopin hikoyaning asosiy e‘tiborini tashqi xabarga emas, balki shu xabar qahramon ongida uyg‘otgan ichki jarayonga qaratadi.

Louise rivojining ikkinchi bosqichi yolg‘izlikka chekinishdir. U xonasiga kiradi va tashqi muhitdan vaqtincha uziladi. Xona, kreslo va ochiq deraza bu hikoyada qahramonning ruhiy o‘zgarishi uchun zarur bo‘lgan makonga aylanadi. Ayniqsa deraza obrazi kelajak, havodorlik, tashqi dunyo va yangi hayot ehtimolini anglatadi.

Uchinchi bosqichda Louise erkinlikni anglaydi. U erining o‘limini faqat yo‘qotish sifatida emas, balki o‘z hayotiga egalik qilish imkoniyati sifatida ham his qiladi. Bu holat qahramonni shafqatsiz yoki axloqan nuqsonli obrazga aylantirmaydi; aksincha, nikoh instituti ichida shaxsiy irodaning cheklanishi qanday ruhiy oqibatlariga olib kelishini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi bosqich yangi hayotni tasavvur qilish bilan bog‘liq. Louise kelajakni o‘z xohishi bilan yashash mumkin bo‘lgan davr sifatida ko‘ra boshlaydi. Uning rivoji tashqi harakatda emas, ongdagi keskin siljishda namoyon bo‘ladi. Bir soat ichida u ijtimoiy rol doirasidagi xotin obrazidan o‘z hayotini tasavvur qila oladigan shaxs darajasiga ko‘tariladi.

Beshinchi bosqich fojiviy uzilishdir. Erining tirik qaytishi Louise uchun nafaqat kutilmagan voqea, balki endigina tug‘ilgan erkinlik tuyg‘usining yo‘q qilinishidir. Shu bois

hikoya yakunidagi o'lim ikki ma'noga ega: tashqi tomondan jismoniy hodisa, ichki tomondan esa ruhiy ozodlikning barbod bo'lishi. Chopin bu ixcham syujet orqali qahramon rivojining eng qisqa, ammo eng kuchli psixologik modelini yaratadi.

### **“A Pair of Silk Stockings”da Mrs. Sommers rivoji**

“A Pair of Silk Stockings” hikoyasida Mrs. Sommers obrazi kundalik hayot va iqtisodiy cheklovlar sharoitida rivojlanadi. Hikoya boshida u o'n besh dollar pulga ega bo'ladi va bu pulni bolalarining kiyim-kechaklariga sarflashni rejalashtiradi. Birinchi bosqichda qahramon ona sifatidagi mas'uliyat, tejamkorlik va oilaviy ehtiyojlar bilan belgilanadi.

Ikkinchi bosqich do'konda ipak paypoqqa tegish lahzasi bilan boshlanadi. Bu oddiy predmet qahramon ruhiyatida kuchli sezgi uyg'otadi. Chopin qahramon rivojini aqliy qaror yoki ijtimoiy da'vo orqali emas, balki tana tajribasi, mayinlik, nafislik va o'ziga e'tibor berish istagi orqali ko'rsatadi. Ipak paypoq Mrs. Sommers uchun uzoq vaqt unutilgan ayollik, nafislik va shaxsiy zavq ramziga aylanadi.

Uchinchi bosqich qahramonning o'ziga sarflash qaroridir. U bolalar ehtiyojlari uchun rejalashtirilgan pulni ipak paypoq, qo'lqop, poyabzal, restoran va teatrga sarflaydi. Bu harakat ijtimoiy miqyosda katta isyon emas; ammo qahramonning ichki hayotida muhim burilishdir. U bir necha soat davomida o'zini faqat ona yoki uy bekasi sifatida emas, mustaqil istakka ega shaxs sifatida his etadi.

To'rtinchi bosqich vaqtinchalik erkinlik tajribasidir. Restoran va teatr qahramon uchun boshqa ijtimoiy makonga kirish imkonini beradi. U bu makonda o'zini kamtarona, lekin muhim darajada qadrlangan va erkin sezadi. Chopin bu jarayonni tanqid yoki hukm bilan emas, nozik psixologik kuzatuv orqali beradi.

Beshinchi bosqich avvalgi hayotga qaytish zarurati bilan belgilanadi. Tramvay safarining tugamasligini istashi Mrs. Sommersning ruhiy holatini ochib beradi: u kundalik majburiyatlarga qaytishni xohlamaydi, ammo real sharoit uni qaytaradi. Demak, qahramon rivoji tashqi hayotni tubdan o'zgartirmaydi, lekin uning ichki ehtiyojlari va bostirilgan istaklarini aniq ko'rsatib beradi.

### **“Désirée's Baby”da qahramon rivoji va ijtimoiy hukm**

“Désirée's Baby” hikoyasida qahramon rivoji boshqa asarlardagidan farqli shaklda kechadi. Bu yerda Désirée o'zligini mustaqil ravishda kengaytirish imkoniga ega emas; aksincha, irqiy mezonlar, nasl haqidagi ijtimoiy qarashlar va patriarxal hokimiyat uning shaxsiyatini yemiradi. Hikoya boshida Désirée xotin va ona sifatida oilaviy baxtga erishgandek ko'rinadi. Armandning muhabbati va farzandli bo'lishi uning ijtimoiy qabul qilingan maqomini mustahkamlaydi.

Ikkinchi bosqich chaqaloqning tashqi belgilariga nisbatan shubha paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Bu shubha oilaviy muhitni izdan chiqaradi. Armandning munosabati birdan sovuqlashadi va Désirée o'zini erining nigohi hamda jamiyatning irqiy mezonlari orqali baholashga majbur bo'ladi.

Uchinchi bosqich o'zlik inqirozidir. Désirée kimligini mustaqil aniqlay olmaydi, chunki jamiyat uning shaxsiy qadrini nasl, rang va erining hukmi orqali belgilaydi. Shu sababli uning rivoji ichki erkinlashuv emas, balki tashqi hukm ostida ruhiy parchalanish shaklida namoyon bo'ladi.

To'rtinchi bosqich rad etilishdir. Armandning ayblovi Désirée'ni oilaviy makondan siqib chiqaradi. Ona va bola bir vaqtning o'zida ijtimoiy hukm qurboniga aylanadi. Bu holat Chopin

ijodida qahramon rivoji har doim ham ozodlik sari harakat bo'lavermasligini ko'rsatadi; ba'zan jamiyat qahramonga o'sish imkonini bermaydi, uni shaxsiy va ijtimoiy fojiga olib boradi.

Beshinchi bosqich hikoyaning kinoyaviy haqiqatida namoyon bo'ladi. Armandning o'z nasli haqidagi haqiqatni bilib qolishi hikoyaning dramatik ironiyasini kuchaytiradi. Désirée'ning fojiasi yolg'on ijtimoiy hukmga asoslangani ayon bo'ladi. Shu jihatdan hikoya nafaqat irqiy adolatsizlik, balki ayolning ijtimoiy maqomi erkak hokimiyatiga bog'lab qo'yilgan muhitning ham tanqididir.

### **“The Storm”da Calixta rivoji: bostirilgan istakning ochilishi**

“The Storm” hikoyasida Calixta obrazi Chopin ijodidagi murakkab va bahsli qahramonlardan biridir. Hikoya boshida u oilali ayol, xotin va ona sifatida kundalik uy muhitida tasvirlanadi. Birinchi bosqichda uning shaxsiyati tashqi oilaviy tartib bilan belgilangandek ko'rinadi.

Ikkinchi bosqich tashqi bo'ron va ichki kuchlanishning uyg'unlashuvi orqali yuzaga keladi. Bo'ron tabiat hodisasi sifatida syujetni harakatga keltiradi, shu bilan birga qahramon ruhiyatidagi bostirilgan ehtiros va noaniq kuchlanish ramziga aylanadi. Chopin bu yerda tabiat va ruhiyat o'rtasida ramziy parallel yaratadi.

Uchinchi bosqich Calixta va Alcée uchrashuvida ko'rinadi. Bu uchrashuv qahramonning yashirin istagini yuzaga chiqaradi. Chopin qahramon harakatini to'g'ridan-to'g'ri axloqiy hukm bilan baholamaydi; aksincha, inson ruhiyatining ijtimoiy me'yorlarga to'liq sig'avermaydigan qatlamlarini ko'rsatadi.

To'rtinchi bosqich lahzaviy ozodlik tajribasidir. Calixta qisqa vaqt davomida kundalik oilaviy rol chegarasidan tashqaridagi o'zligini his qiladi. Bu jihat uni Edna, Louise va Mrs. Sommers bilan yaqinlashtiradi: ularning barchasi muayyan lahzada jamiyat belgilagan rol ortidagi ichki “men” bilan yuzlashadi.

Beshinchi bosqich kundalik hayotga qaytishdir. Hikoya yakunida oilaviy tartib tiklangandek ko'rinadi. Biroq qahramonning ruhiy tajribasi izsiz yo'qolmaydi. Chopinning muhim badiiy yutug'i shundaki, u Calixta obrazini jazolash yoki oqlash yo'lidan bormaydi, balki uning ichki murakkabligini o'quvchi hukmiga havola etadi.

### **Qahramon rivojining qiyosiy tahlili**

Chopin qahramonlari rivojining qiyosiy tahlili ularning har biri turlicha ruhiy yo'lni bosib o'tishini ko'rsatadi. Edna Pontellier rivoji keng roman doirasida, bosqichma-bosqich va fojiaviy tarzda kechadi. Louise Mallard esa bir soat ichida ichki ozodlikni anglaydi va darhol undan mahrum bo'ladi. Mrs. Sommers rivoji kundalik xarid va qisqa muddatli shaxsiy zavq orqali namoyon bo'ladi. Désirée rivoji esa o'sishdan ko'ra ijtimoiy hukm ostidagi inqiroz shaklini oladi. Calixta rivoji yashirin istakning qisqa muddatli ochilishi va tashqi tartibga qaytish bilan belgilanadi.

Bu farqlarga qaramay, mazkur qahramonlarni birlashtiradigan muhim jihat mavjud: ularning barchasi jamiyat tomonidan belgilangan rol va ichki ehtiyoj o'rtasidagi ziddiyat bilan yuzlashadi. Chopin uchun qahramon rivoji axloqiy “to'g'rilanish” yoki ijtimoiy muvaffaqiyat emas, balki ongning murakkablashuvi, o'zlikka yaqinlashish va yashirin istakni tan olish jarayonidir.

Yozuvchi qahramon rivojini ko'pincha maishiy detallar orqali beradi. Dengiz, deraza, ipak paypoq, chaqaloq, xat va bo'ron singari obrazlar syujetning oddiy elementi bo'lib qolmay,

qahramon ruhiyatidagi burilish nuqtalariga aylanadi. Bu usul Chopin ijodining psixologik realizmga yaqinligini ko'rsatadi: tashqi voqealik ichki kechinmaning badiiy ifodasiga aylanadi.

Shuningdek, Chopin qahramonlarini biryozlama ijobiy yoki salbiy obrazlar sifatida emas, murakkab insoniy tajribaga ega shaxslar sifatida tasvirlaydi. Edna xatolardan xoli qahramon emas; Louise ichki erkinlikni his qilgani uchun soddalashtirilgan axloqiy bahoga sig'maydi; Mrs. Sommersning xaridi ham mas'uliyatsizlik emas, balki o'zlikni eslash lahzasidir; Désirée fojiasi ijtimoiy adolatsizlikni ochadi; Calixta esa inson istagining jamiyat me'yorlari bilan murakkab munosabatini ko'rsatadi.

### **Xulosa**

Kate Chopin asarlarida qahramonlarning rivojlanish bosqichlari tashqi sarguzasht, ijtimoiy yuksalish yoki an'anaviy qahramonlik modeli asosida emas, balki psixologik uyg'onish, ichki ziddiyat va o'zlikni anglash jarayoni orqali shakllanadi. Uning qahramonlari dastlab jamiyat tomonidan belgilangan rollar ichida ko'rinadi, ammo turli vaziyatlarda o'z ichki ehtiyojlari, istaklari va ruhiy cheklanishlari bilan yuzma-yuz keladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, Chopin qahramonlari rivojining umumiy modeli besh bosqichdan iborat: ijtimoiy rolga joylashtirilish, ichki ziddiyatning paydo bo'lishi, o'zlikni anglash lahzasi, erkinlikka intilish yoki ichki qaror va yakuniy ruhiy natija. Bu bosqichlar har bir asarda turlicha namoyon bo'ladi. Edna Pontellier rivoji keng va fojiviy; Louise Mallard rivoji qisqa, ammo kuchli psixologik portlash shaklida; Mrs. Sommers rivoji vaqtinchalik o'zlikni tiklash tajribasi sifatida; Désirée rivoji ijtimoiy hukm ostidagi inqiroz sifatida; Calixta rivoji esa bostirilgan istakning lahzaviy ochilishi sifatida talqin qilinadi.

Shunday qilib, Kate Chopin ijodida qahramon rivoji avvalo ichki uyg'onish tarixidir. Yozuvchi qahramonlarini tayyor axloqiy xulosalar bilan baholamaydi, balki ularning murakkab ruhiy tajribasini ko'rsatadi. Shu jihatdan Chopin prozasi Amerika adabiyotida ayol ruhiyati, shaxsiy erkinlik muammosi va jamiyat bilan ichki “men” o'rtasidagi ziddiyatni yoritgan muhim badiiy hodisa sifatida baholanishi mumkin.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Beer, Janet, ed. *The Cambridge Companion to Kate Chopin*. Cambridge: Cambridge University Press, 2008. DOI: 10.1017/CCOL9780521883443.
2. Chopin, Kate. *The Complete Works of Kate Chopin*. Edited by Per Seyersted. Baton Rouge: Louisiana State University Press, 1969; single-volume paperback edition, 2006.
3. Chopin, Kate. *Kate Chopin: Complete Novels and Stories*. Edited by Sandra M. Gilbert. New York: Library of America, 2002.
4. Chopin, Kate. *The Awakening*. Edited by Margo Culley. 3rd ed. Norton Critical Edition. New York: W. W. Norton, 2018.
5. Koloski, Bernard. *Kate Chopin: A Study of the Short Fiction*. New York: Twayne Publishers, 1996.
6. Toth, Emily. *Unveiling Kate Chopin*. Jackson: University Press of Mississippi, 1999.
7. Encyclopaedia Britannica. “Kate Chopin.” *Britannica Academic / Encyclopaedia Britannica Online*.
8. Encyclopaedia Britannica. “The Awakening.” *Encyclopaedia Britannica Online*.
9. Encyclopaedia Britannica. “Désirée’s Baby.” *Encyclopaedia Britannica Online*.

10. Kate Chopin International Society. “Biography: Kate Chopin, The Awakening, The Storm, Stories.”
11. Kate Chopin International Society. “Kate Chopin’s Short Stories: Composition and Publication Dates.”
12. Kate Chopin International Society. “The Story of an Hour”; “A Pair of Silk Stockings”; “The Storm.”
13. Project Gutenberg. The Awakening, and Selected Short Stories by Kate Chopin. eBook No. 160.